



## UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARIDA INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TEXNOLOGIK KOMPETENTSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

**Sh.Sh.Shuxratov**

*Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD.,*

**N.Raxmatova**

*Texnologik ta'lim yo'nalishi 2-kurs magistranti.*

*Farg'ona davlat universiteti.*

**Annotasiya:** *Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining bilimi, ko'nikmasi va malakalarini, texnologik kompetensiyalarini faollashtirish, o'quvchilarning texnologik salohiyatini shakllantirish, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tadbiiq etish, axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan dars jarayonida foydalanish, o'qituvchining pedagogik kompetentligini rivojlantirish orqali o'quvchilar bilim darajasi va salohiyatini ko'tarish to'g'risida so'z yuritilgan.*

**Kalit so'z va iboralar:** *texnologik kompetensiya, ahloqiy-psixologik tayyorgarlik, innovatsion yondashuv, innovatsiya, innovatsion tafakkur, innovatsion faoliyat, innovatsion bozor, pedagogik innovatsiya, texnologik tayyorlov istiqbollari.*

O'quvchilarda texnologik kompetentsiyani shakllantirish – o'quvchilarni texnologik hayot tarziga tayyorlashga, umumiy farovonlik yo'lida aqliy va jismoniy mehnatga, amaliy hamda ahloqiy-psixologik tayyorgarlikni shakllantirishga yo'naltirilgan o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning yaxlit uzluksiz jarayonidir.

Texnologik kompetentsiyani shakllantirishning maqsadi – turli yo'nalishlarda halol, ijodiy mehnatga tayyorlikni shakllantirish, shaxsning salomatligini mustahkamlash hamda, har tomonlama rivojlanishiga yordam berishdir.

O'qituvchi innovatsion yondashuv asosida o'quvchilarni texnologik kompetentsiyasini shakllantirish uchun, eng avvalo, pedagogik innovatsiyalar to'g'risida tushunchaga ega bo'lishi kerak. Pedagogik innovatsion jarayonlar G'arb davlatlarida o'tgan asrning 50 yillari oxirlaridan boshlab, mustaqil O'zbekistonda esa, so'nggi 10 yillikda olimlar tomonidan maxsus o'rganila boshlangan. So'nggi yillarda mamlakatimiz olimlari tomonidan innovatsiya, innovatsion tafakkur, innovatsion faoliyat, innovatsion bozor, pedagogik innovatsiyalar haqida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ta'lim sohasi inson mavjudligini belgilab beruvchi asosiy sohalardan hisoblanadi. Ta'limning zamonaviy tizimida jamiyatning asosiy talablaridan biri har tomonlama rivojlangan, murakkab vaziyatlarda nostandart yechimlarni topishga, ijodiy fikrlay oladigan va butun hayoti davomida uzluksiz ta'lim olishga qodir shaxsni tarbiyalab





voyaga yetkazish, shakllantirishdan iborat. Bu esa innovatsion yondashuv asosida o'quvchilarni texnologik kompetentsiyasini shakllantirishni talab qiladi.

Umumiy o'rta ta'limda texnologiya o'quv fanini o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda texnik-texnologik va operatsion bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetentsiyalarini shakllantirishdan iborat.

Hozirgi zamon fanida "texnologiya" atamasi quyidagi birliklarda ishlatiladi: o'qitish texnologiyasi, ta'lim jarayoni texnologiyasi, tayyorlash texnologiyasi, boshqarish texnologiyasi, multimedial texnologiyasi.

Tahlillardan ma'lum bo'ladiki, "texnologiya" tushunchasiga uning rivojlanishi va moddiy ishlab chiqarish jarayonlarini belgilashdan inson ehtiyojlarini ta'minlash bo'yicha keng qayta o'zgartirish faoliyatini aniqlashga o'tish haqidagi yondashuvlarda faol va muhim o'zgarishlar yuz bermoqda. Bunda texnologiya keng ma'noda insonning nafaqat moddiy ishlab chiqarish bilan bog'liq faoliyati, balki umuman qayta o'zgartirish faoliyati sifatida ham tushuniladi.


Texnologiyaga oid asosiy g'oyalarni, xususan, asosiy kontseptsiyalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, mamlakatimiz pedagogikasida o'quvchilarning texnologik tayyorgarligiga tabiiy-ilmiy, tuzilmaviy, funksional yondashuvlar, eng jiddiy tarzda, ishlab chiqarish faoliyati aspektida qarab o'tiladi.

Tadqiqotchilar maktab o'quvchilarining amaliy yo'naltirilgan yangi o'qitish tizimiga o'tishining shart-sharoitlarini aniqlashga katta e'tibor berdi. Keng doiradagi mutaxassislarning jamoaviy sa'y-harakatlari yangi ta'lim sohasining metodik, kadrlar va axborot ta'minotini ta'minlash yo'llarini aniqlashga qaratildi.

Shaxs rivojlanishining yosh davrini hisobga olib, maktab o'quvchilarida texnologik kompetentsiyalarni shakllantirishda quyidagi vazifalar hal etiladi:

- o'quvchilarda texnologik bilim, ko'nikma va malakalarni, mehnat predmetlari va vositalaridan foydalanish funksional savodxonligini shakllantirish;
- fikrlar doirasini kengaytirish va fan asoslarini o'rganishda olingan bilim va malakalarni texnologik faoliyatda mustahkamlash;
- o'quvchilarda faol hayot pozitsiyani, raqobatbardoshlikka tayyorlikni, bozor munosabatlari tizimiga faol kirisha olish qobiliyatini tarbiyalash;
- ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, loyihalash faoliyati, tadbirkorlik asoslarini egallash; муҳим касбий сифатларни шакллантириш ва аниқлаш;
- mehnat bozori bilan tanishtirish, kasbiy o'z-o'zini belgilash va ijtimoiy-kasbiy kar'erani rejalashtirish;
- kasbiy faoliyatning tanlangan yo'nalishi bo'yicha faoliyat usullarini va mehnat vositalarini chuqur egallash.

Zamonaviy pedagogik amaliyotda maktab o'quvchilarida texnologik kompetentsiyalarni shakllantirish vazifalari tahlili mehnat (texnologiya) ta'limi an'analari va moddiy ishlab chiqarish sohasiga ustuvor yo'naltirilganlikning saqlanganligidan dalolat beradi. Bu bilan shakli bo'yicha texnologik, lekin mohiyatiga





ko'ra politexnik bo'lib qolgan amaliy yo'natirilgan ta'limning maqsadlari doirasi aniqlanadi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida texnologik tayyorlov istiqbollari, uning ahamiyati va o'rni o'qitish jarayonida o'quvchilarning keng ijtimoiy kasbiy shakllanishi ehtiyojlariga muvofiq rivojlanishi vazifalari bilan aniqlanadi. Maktab o'quvchilarida texnologik kompetentsiyalarni shakllantirishning hozirgi zamon bosqichi ilg'or nazariyasi va amaliyoti ijtimoiy mehnat faoliyatining turli sohalari tuzilmasida amaliy yo'naltirilgan ta'lim asoslarini shakllantirish imkonini yaratadi.

Mamlakatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar natijasida mehnat bozori yuzaga keldi, bu esa, o'z navbatida shubhasiz, ta'lim bozoriga olib keldi. Ta'limning bozor modeli individning shart-sharoitlariga, ishlab chiqarishning ehtiyojlariga, yangi huquqiy va qadriyatlar asosidagi milliy yo'nalishlarga moslashish vazifasini qo'yadi. Ta'lim xizmatlari tizimiga o'tish buyurtmachining qiziqishlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qoniqtirish zaruriyatini aniqlab beradi.


Texnologik kompetentsiyalarni shakllantirishning asosiy vazifasi o'quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash, ta'lim va amaliyotning o'zaro ta'sirini real mavjudlik bilan optimallashtirish, maktab o'quvchilarining ijtimoiy-kasbiy o'z-o'zini belgilashini va moslashishini ta'minlashdan iborat.

“Texnologiya” o'quv fani umumiy o'rta ta'lim tizimida muhim o'rin egallaydi va o'quvchilarda texnologik kompetentsiyalarni shakllantirish va o'qitishning zaruriy komponenti hisoblanadi va ularga texnologik bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatini yaratadi. “Texnologiya” o'quv fanini innovatsion yondashuv asosida o'qitishda o'quvchilarda texnologik kompetentsiyalarni shakllantirish ham pedagogik, ham boshqaruv masalalarini hal etishni taqozo etdi.

Ta'lim muassasasida texnologiyani o'qitishdagi innovatsion yondashuv – bu o'quv jarayoniga ta'lim muassasasi tomonidan kiritilgan yangiliklarning yig'indisini ifoda etadi. Bu muhitda o'qituvchining pedagogik faoliyati va ta'lim jarayoni (o'quvchilarda texnologik kompetentsiyalarni shakllantirish)ni muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin. Innovatsion yondashuvni bunday ma'noda tushinishda texnologik ta'lim uchun yaratilgan pedagogik shart-sharoit o'qituvchi faoliyatining muhim sharti hisoblanadi.

Innovatsion yondashuv asosida o'quvchilarda texnologik kompetentsiyalarni shakllantirishning asosiy maqsadi va mazmuni maktab o'quvchilarini ijodiy mehnatga tayyorlash va uning har tomonlama uyg'un rivojlanishini ta'minlashdan iborat. Maktab o'quvchilarida texnologik kompetentsiyalarni shakllantirish maqsadlari va mazmunini joriy etish texnologik ta'limning uzluksizligi va yaxlitligini ta'minlashni talab etadi.

Amaliy yo'naltirilgan ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Maktabda bu rol ni texnologiya fanining tashkillovchilar o'ynaydi. Shu bois texnologiya fani maktab o'quvchilarida texnologik kompetentsiyalarni shakllantirish tizimining tayanchi sifatida tushuniladi.





Birinchi dan, u kasblar tuzilmasida maktab o'quv fanlarining roli va o'rnini ko'rsatib, o'quv fanlarini amaliy faoliyat uchun zarur bo'lgan dolzarb bilimlar sifatida yaxlit holda birlashtirishi kerak; ikkinchi dan, maktab o'quvchilarida funktsional va texnologik savodxonlik hamda mohirlikning muayyan darajasini shakllantirishi; uchinchi dan, shaxs rivojlanishining diagnostik funktsiyalarini amalga oshirishga yordamlashishi; to'rtinchi dan, malakali mutaxassisni shakllantirishga zamin yaratilishi lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Parpieva O.R, Hojekarimova G.T, Nazirova A.M //FORMATION OF STUDENT PEDAGOGICAL SKILLS BASED ON THE REQUIREMENTS OF INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT// Международном научно-практическом журнале "Экономика и социум". Вып №6(85) 2021. 157-161стр.

2. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, Oripova Nodirahon Qodirjon qizi, Nazirova Arofatxon Maxmudjon qizi //Basics of a healthy lifestyle in the educational process// Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Vol. 9. 06-2022. 89-94 page.

3. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, A.Ruzimatova //CREDIT-MODULE SYSTEM OF EDUCATION// O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 20.08.2022 yil. 10-SON. 83-87 betlar

4. Парпиева О.Р. Болтабоева Н.М. //ЭТАПЫ РЕШЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ЗАДАЧИ// Международный научно-практический журнал "Теория и практика современной науки" Вып №6(48) 2019. 388-391с

5. Qaxxorova Barchinoy Abdiraximovna, Ikromova Komila Hamidullo qizi, Nazirova Arofatxon Maxmudjon qizi //INNOVATIVE METHODS USED IN THE EDUCATIONAL PROCESS// IJODKOR O'QITUVCHI JURNALI. 5 IYUN / 2022 YIL / 19 – SON. 277-283 betlar.

6. Ikromova Komila Hamidullo qizi, Qaxxorova Barchinoy Abdiraximovna //MATERIALS SCIENCE AND ITS PROBLEMS// IJODKOR O'QITUVCHI JURNALI. 5 IYUN / 2022 YIL / 19 – SON. 288-292 betlar.

7. Otazhonov S.M., Botirov K.A., Khalilov M.M., Yunusov N //EFFECT OF DEFORMATION ON DEFECT MIGRATION IN PHOTOSENSITIVE THIN FILMS CdTe: Ag AND PbTe// Science and World International scientific journal № 6 (94) июн 2021 ISSN 2308-4804 . IF 0,325 Page 11-16

8. Отажонов С.М., Ахмедов Т., Усмонов Я., Ботиров К.А., Халилов М.М., Юнусов Н. //ВЛИЯНИЕ ВНУТРЕННЕГО НАПРЯЖЕНИЯ НА ДЕФОРМАЦИОННЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ПОЛИКРИСТАЛЛИЧЕСКИХ ПЛЕНОК PbTe С ИЗБЫТКОМ ТЕЛУРА И СВИНЦА// Science and World International scientific journal. 2021. № 3 (91). 18-22 page.





9. Yakubjon Usmanov, Ikromova Komila Hamidullo qizi //Use of Innovative Technologies in Teaching Electrical Engineering// Texas Journal of Engineering and Technology. <https://zienjournals.com>. VOL. 9, JUNE, 2022. 97-99 page.

10. Tursunboy Axmedov, Siddikova Ranoxon Abdulxay qizi, Xusanova Lobarxon Murodovna //Basics of Wood Materials and Woodworking Technology// Texas Journal of Engineering and Technology. <https://zienjournals.com>. VOL. 9, JUNE, 2022. 100-102 page.

11. T Akhmedov , S M Otajonov, Ya Usmonov, M M Khalilov, N Yunusov and A K Amonov // Optical properties of polycrystalline films of lead telluride with distributed stichiometry// Journal of Physics Conference Series/ 1889(2021)022052 doi:10.1088/1742-6596/1889/2/022052. 1-8 page

12. Sh.M.Tairov “Hayot faoliyati xavfsizligi sohasida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashning nazariy jihatlari”. “ IJODKOR O'QITUVCHI JURNALI” 5 IYUN / 2022 YIL / 19 – SON.

13. Tairov Sherzod Mirzadjanivich //Moslashuv (adaptatsiya) davridagi organizm funksiyalarining dinamikasi va uning bosqichlari// Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке» № 3 (100), часть 1. сентябрь, 2022 г. 475-478 стр

14. Салим Мадрахимович Отажонов, Абдуқахор Маматбоқиевич Худойбердиев, Ботиров Қодир Абдуллаевич, Мухаммадмусо Мухаммаджонович Халилов, Нурзод Юнусов, Улугбек Мамажонов //Тензочувствительности полупроводниковых пленок с мелких и глубоких примесей при температуре жидким гелием// Universum: технические науки. 12-2 (69) 2019. 28-32 page

15. Salim Madrahimovich Otajonov, Qaxxorova Barchinoy Abdiraximovna //Polymer and Composition Materials// Texas Journal of Engineering and Technology. <https://zienjournals.com>. VOL. 9, JUNE, 2022. 103-106 page.

16. Otazhonov S.M., Yunusov N., Qakhkhorova B. //DEFORMATION CHARACTERISTICS OF PbTe-Te POLYCRYSTALLINE FILMS// SCIENCE AND WORLD International scientific journal № 3 (103), 2022. 27-31 page

17. Отажонов С.М., Юнусов Н., Қаххорова Б //ДЕФОРМАЦИОННЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ПОЛИКРИСТАЛЛИЧЕСКИХ ПЛЕНОК PbTe-Te// Деформационный наука и мир 2022 №3.

18. И.Якубов, Максудов Р.Х., Джураев А. //Development of effective design and substantiation of parameters of the cotton cleaner from large little//НамМТИ илимий-техника журнали 2020 (4).

19. Sh.Shukhratov, R.Milašius, I.Yakubov, R.Maksudov, A.Djurayev. “Determination of parameters of grates on rubber brackets of fiber material cleaners”. International Journal of Engineering and Advanced Technology 9(2), 2019. 4263-4270

20. Razzokov Bakhtiyor Khabibullaevich, Yokubjonova Mukaddaskhon Khusanboy kizi //Future Technological Education Developing Professional Skills for Teachers//. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 7-2022, 178-180 page.

